

BO'LAJAK BIOLOGIYA O'QITUVCHILARIDA BADIY-ESTETIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Rabbimva Farida To'qsanboyevna,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Biologiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti*

Annotatsiya: Zamonaviy sharoitda bo'lajak o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar biologiya ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda nafaqat kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni, balki ularni ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirish ularni raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlashning muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, maxsus kompetensiya, shaxsiy kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, badiiy-estetik kompetensiya, individual kompetensiya, asosiy kompetensiya, tayanch kompetentlik, fanlararo kompetentlik, umumkasbiy, biologiya sohasiga oid kompetentlik.

РАЗВИТИЕ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ БИОЛОГИИ - КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

*Раббимва Фариди Токсанбоевна
Джизакский государственный педагогический университет
Доцент кафедры биологии и методики ее преподавания*

Аннотация: В современных условиях для студентов, обучающихся в сфере биологического образования, требования, предъявляемые к личности будущего учителя, заключаются не только в профессиональных знаниях, умениях и умениях, но и в их социальном, профессиональном и личностном развитии. Развитие художественно-эстетической компетентности у будущих учителей биологии является одним из важных показателей их подготовки как конкурентоспособных кадров.

Ключевые слова: Компетентность, специальная компетентность, личностная компетентность, социальная компетентность, художественно-эстетическая компетентность, индивидуальная компетентность, базовая компетентность, базовая компетентность, междисциплинарная компетентность, общепрофессиональная компетентность, биологическая компетентность.

DEVELOPMENT OF ARTISTIC-AESTHETIC COMPETENCE IN FUTURE BIOLOGY TEACHERS - AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

*Rabbimva Farida To'qsanboyevna,
Jizzakh State Pedagogical University. Associate Professor of the Department of Biology
and Methods of Its Teaching*

Abstract: In modern conditions, the demands placed on the personality of the future teacher are not only professional knowledge, skills and abilities, but also their social, professional and personal development is of particular importance for students studying in the field of biology education. Development of artistic and aesthetic competence in future biology teachers is one of the important indicators of their training as competitive personnel.

Key words: Competence, special competence, personal competence, social competence, artistic-aesthetic competence, individual competence, basic competence, basic competence, interdisciplinary competence, general professional competence, biological competence.

KIRISH. Bugungi kunda dunyoda fan va texnikaning jadal rivojlanishi, ta'limda nazariya bilan amaliyot birligi hamda ta'limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi talablari talabning mustaqil faol va ongli mehnatiga asoslangan, uning ijodiy faoliyatini rag'batlantiradigan, tafakkurini rivojlantiradigan, vaqtini tejaydigan, bilim o'rganishini qulaylashtiradigan zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va o'quv jarayoniga tadbir

etishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil amalga oshirilayotgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirilishining beshta ustivor yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasi taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonning amaliy natijalari, belgi va xususiyatlari bugungi kunda hayotimizning barcha jabxalarida, eng muhimi, xalkimizning ongu tafakkuri, intilishi va harakatlarida yaqqol ko'zga tashlanmokda. Shu ma'noda Harakatlar strategiyasi O'zbekistonni tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan zamon talablari asosida jadal rivojlantirishning ilmiy-nazariy, amaliy-konstruktiv asoslarini belgilab beradigan, taraqqiyotning yangi davri uchun mo'ljallangan muhim dasturilamaldir, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Bu keng ko'lamli, noyob hujjat davlatimizning barcha sohalarida yangicha yondashuv va mezonlarni joriy etish, aholining barcha qatlamlari o'rtasida tashabbuskorlik, tadbirkorlik, elu yurtimiz taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyat va dahldorlik tuyg'usini oshirish, aniq tizim asosidagi samarali faoliyat tartibini joriy etishda tobora hal qiluvchi ahamiyat kasb etib borayotganini hozirgi kunda yurtimizda va xorijdagi nufuzli ekspert va taxlilchilar, jahon siyosat maydonida katta o'rin tutadigan atoqli davlat va siyosat arboblari keng e'tirof etishmoqda.

Harakatlar strategiyasining IV- bo'limida Ijtimoiy sohani rivojlanti-rishning ustvor yo'nalishlari deb nomlangan 4.4 -bandida "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish" masalalari o'z aksini topgan. Ya'ni:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish:

ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish:

ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish:

ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisos-lashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish nazarda tutilgan.

Ta'lim sifatini ta'minlash - bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan birga o'quv jarayonining qanday tashkil etilishi va uning belgilangan sifat mezonlariga javob berishida ko'rinadi. Hozirgi davrda ta'lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarining kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi.

Hozirgi rivojlanish bosqichida oliy ta'limda yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishga e'tibor yanada ham kuchaytirildi, dars mashg'u-lotlari sifatini yaxshilash, uni jahon andozalari darajasiga yetkazish asosiy maqsadlardan biriga aylandi.

Ilm-fan va texnologiya sohalarining mavjud taraqqiyotidan foydalanib, undan ta'lim-tarbiya yo'nalishida keng qo'lanilsa, o'sha mamlakatning zamonaviy jamiyat qiyofasini belgilab beradi. Zamonaviy jamiyatning eng muhim xarakterli jihati uning barcha sohalarida globallashtirishning ko'zga tashlanayotganligidir. Bu tarzda harakatlanish imkoniyatiga o'z sohasining bilimdoni bo'lgan, kasbiy malakalarni yuqori darajada egallay olgan, boy tajriba va mahoratga ega kadrlarni bo'lishini taqozo etadi.

Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustivor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech

qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

Davlatimizning ta'lim sohasidagi siyosati milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri o'qish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilganidir.

Ushbu qo'yilgan oliy maqsadni amalga oshirish uchun mamalakatimizda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda va bir qator qonun osti hujjatlari qabul qilinib, ular asosida ulkan ishlar amalga oshirildi. Ularning uzviy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 7-fevral kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi dasturlarining 4-yo'nalishida va 2017 yil 22-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisiga murojaatnomasida ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha aniq chora tadbirlar belgilab berilgan.

Prezidentimiz tomonidan yuqori malakali pedagoglarga bo'lgan talablar ortib borishi, barkamol avlodni asrlar davomida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega, fanning fundamental asoslarini, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuksak darajada bo'lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakasiga ega ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etilishiga alohida e'tibor qaratildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetentligini takomillashtirishning ma'naviy-axloqiy, ekologik, valeologik asoslari, tarixiy tafakkur bilan aloqadorligi B.Adizov, Sh.Mardonov, U.Mahkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, D.Ro'zieva, R.Safarova, B.Xodjaev, F.Yuzlikaev, Sh.Shodmonova, Sh.Sharipov, D.Sharipova, N.Egamberdieva, M.Quronovlar tomonidan tadqiq etilgan. Ta'lim oluvchilarda badiiy-estetik kompetentlikni takomillashtirishning psixologik va akmeologik xususiyatlari E.Goziev, M.Davletshin, A.Derkach, A.Leontev, D.Muxamedova, S.Safaevlar tomonidan o'rganilgan.

Badiiy-estetik ta'limning ijtimoiy, falsafiy jihatlari B.Ziyomammedov, S.Mamashokirov, Yu.Sh.Shodimetovlar; ekologiya va atrofmuhit muhofazasi masalalari N.Isakulova, Yu.Maxmudov, Sh.Otaboev, A.S.To'xtaevlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Bo'lajak o'qituvchilarda badiiy-estetik kompetentlikni takomillashtirish yuzasidan xorijlik olimlardan L.Botcheva, J.Shih, L.Huffman, Mijung Kim, C.Diong, M.Unland, B.Kleinerlar ilmiy izlanishlar olib borgan.

TADDIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov, pedagogik konsilium, modellashtirish, so'rovnoma, test, matematik-statistik tahlil kabi tadqiqot va tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR. Zamonaviy iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish ta'lim tizimi oldiga qo'yayotgan talablar bilan bog'liqlikda o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlarda kompetent yondashuv ta'lim mazmuni va metodlarini o'zgartirishning yangi bosqichi sifatida ko'rib chiqilgan. Ana shu nuqtai nazardan ko'plab tadqiqotlarda kompetensiya produktiv va ijodiy faoliyat uchun zarur o'zaro aloqador shaxsiy sifatlar majmui, kompetentlik esa, ma'lum sohaga doir biron-bir muammoni hal etishga imkon beruvchi shaxsning zaruriy kompetensiyalarni egallaganligi sifatida talqin etilgan [1].

Kompetensiya (lotincha so'z bo'lib, erishaman, to'g'ri kelaman ma'nolarini bildiradi) – subyektning maqsadni qo'yish va unga erishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali birga tashkil qila olishlikka tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan kasbiy masalalarni yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir [2].

N.M.Muslimovning fikricha inglizcha “competence” tushunchasining lug'aviy ma'nosi “qobiliyat” demakdir, biroq kompetensiya atamasi bilim, ko'nikma, mahorat va qobiliyatni

ifoda etishga xizmat qiladi [3].

V.V.Zolotseva “kompetensiya” tushunchasini «muammoni hal etish uchun bilim va vaziyat, bilim va harakat oʻrtasida aloqadorlikni taʼminlash imkonini beradigan bilim, qadriyatlar, layoqatlarga asoslangan umumiy qobiliyat” sifatida talqin etadi [4]. Muallifning fikridan kelib chiqqan holda, kompetensiya – insonning mavjud bilim va hayotiy tajribalarga tayangan holda maʼlum bir muammoni hal etishga doir qobiliyati, degan xulosaga kelish mumkin.

Boʻlajak biologiya oʻqituvchilarini tayyorlash nuqtai nazaridan kompetensiya – uzluksiz taʼlim tizimida biologiya fanlarini oʻqitish jarayonini samarali tashkil uchun zarur boʻlgan va aniq belgilab berilgan kasbiy tayyorgarlikka qoʻyiladigan ijtimoiy talablar (meʼyorlar)dan ham oʻzib ketishidir. Ana shu nuqtai nazardan respublikamizda biologiya fanini oʻqitish metodikasi boʻyicha yetakchi olim J.Tolipova biologik fanlarni oʻqitishda oʻqituvchi davlat buyurtmalarini amalga oshirishi uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozimligini alohida qayd etib oʻtadi: biologik taʼlim jarayonida talaba-yoshlarni maʼnaviy-ahloqiy tarbiyalash, maʼrifiy ishlarning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish va joriy etish;

biologik fanlardan tashkil etiladigan taʼlim-tarbiya jarayonida innovatsion va axborot-kommunikativ texnologiyalardan foydalanish;

biologik fanlarni oʻqitishda tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda oʻqitish jarayonini jadallashtirish;

xalqning boy maʼnaviy va intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida biologik taʼlimning insonparvarlik yoʻnalishini taʼminlash;

biologik taʼlim jarayonining oʻquv-metodik majmualar va didaktik taʼminotning yangi avlodi – Silabusni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlar ustuvorligi asosida biologik taʼlimning barcha darajalari va boʻgʻinlarida talaba-yoshlarning maʼnaviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish;

biologik taʼlim jarayonida talaba-yoshlar ongi va qalbiga milliy gʻoya va mafkurani singdirish, taʼlim muassasalarida mafkuraviy tarbiyani bugungi kun darajasiga koʻtarish;

taʼlim-tarbiya jarayonida taʼlim va tarbiyani uzviylashtirish orqali talabalarning barkamolligini taʼminlash, huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiyenik taʼlimi hamda tarbiyasini takomillashtirish;

boʻlajak pedagog kadrlarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirishni bajarish lozim [1].

Kompetensiyaning turlarini tasnif etishga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud. Jumladan, J.Tolipovanning taʼkidlashicha, kompetensiya – biologiya fani boʻyicha talabalarning egallagan nazariy bilim, amaliy koʻnikma va malakalarini kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qoʻlay olishidir [2].

M.B.Urazova loyihaviy faoliyat nuqtai nazaridan kompetensiyalarni quyidagi turlarga ajratishni taklif etadi:

refleksiv kompetensiya: oʻz-oʻziga baho berish, oʻz shaxsi va faoliyatining yutuqlari va kamchiliklariga boʻlgan oʻziga xos talabchanlik, oʻz ijodiy yutuqlari va omadsizliklari sababini tushuna olish;

kognitiv kompetensiya: mustaqil ravishda yangi bilim va qobiliyatlarni egallay olish, mustaqil rivojlanish gʻoyalarini qoʻllash;

axboriy kompetensiya: kerakli axborotning olinishi, qayta ishlanishi va ishlatilishiga doir maxsus qobiliyatlarning egallanishi;

kommunikativ kompetensiya yuqori darajadagi muloqotga erishishga yordam beradigan usullar;

ijtimoiy kompetensiya: voqelikning ijtimoiy ahamiyatini anglash, javobgarlikni oʻz zimmasiga olish qobiliyati, shaxsiy qiziqishlarning jamiyat ehtiyojlari bilan bogʻliqligining namoyon boʻlishi [2].

I.A.Zimnyaya uch guruh kompetensiyalar tizimini taklif etgan:

subyektiv – sogʻliqni saqlash; qadriyatli-mazmunli oriyentatsiya; fuqarolik; qadriyatli-mazmunli; oʻz-oʻzini takomillashtirish; oʻz-oʻzini boshqarish; oʻz-oʻzini rivojlantirish; refleksiyaga qodirlik; bilimlarini tizimlashtirishga yoʻnaltirilgan integratsion kompetensiyalar;

ijtimoiy – jamiyat a'zolari, jamoa, oila, do'stlar, hamkorar bilan tolerant munosabatda bo'lish, hurmat qilish; og'zaki, yozma, dialogik, monologik nutq, an'ana, marosim, odob-axloqqa rioya qilish;

faoliyatga doir – bilishga doir vazifalarni o'z oldiga qo'yish va hal etish; o'yinli, mehnat, tadqiqotchilikka doir; axborot texnologiyalarni qo'llashga doir [1].

B.X.Xodjayeov tomonidan esa, "umumta'limiy kompetensiya" tushunchasi iste'molga kiritilgan bo'lib, olim umumta'lim fanlarini o'qitishga doir sakkizta tayanch kompetensiyani aniqlashtirgan: motivatsion-kognitiv; informatsion; kommunikativ; g'oyaviy-mafkuraviy; fuqarolikka doir; ma'naviy-axloqiy, aksiologik, akmeologik, estetik [2].

Mazkur umumta'limiy kompetensiyalar biologiya ta'limi uchun ham xos bo'lib, sakkizinchi tayanch kompetensiyani badiiy-estetik kompetensiya sifatida tadqiq etish g'oyat muhim degan xulosaga kelindi.

Kompetensiyalarni tasnif etishga doir bunday xilma-xillik kasbiy tayyorgarlik nuqtai nazaridan masalaning mohiyatini chuqurroq tadqiq etishni taqozo etdi. Aynan kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan J.Tolipova, A.Verbitskiy va O.Larionovalar tomonidan ilgari surilgan kompetensiyalarni tasnif etishda obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarni hisobga olish lozim, degan fikrga tayanish lozim deganda xulosaga kelindi: obyektiv shart-sharoitlar bilan bog'liqlikda kompetensiyalarni bo'lajak biologiya o'qituvchisining ta'limga oid qonunchilik normalarida ifodalangan huquq va burchlari, mas'uliyati sifatida; subyektiv shart-sharoitlar bilan bog'liqlikda dunyoga, o'z-o'ziga, boshqa kishilarga nisbatan ma'suliyati, kasbiy motivlari, kasbiy sifatleri, psixofiziologik o'ziga xosliklari tarzida tushunish maqsadga muvofiq [3].

Biroq A.Verbitskiy va O.Larionovalar tomonidan kompetentlik va kompetensiyalarni aniq bilim, ko'nikma va malakalar tizimiga kiritib bo'lmaydi [4], degan fikriga qo'shilish mushkul. Chunki bilim, ko'nikma va malakalar taktik; kompetentlik, kompetensiyalar va metakasbiy sifatlar strategik kasbiy ta'lim birliklarini o'zida aks ettiradi.

B.X.Xodjayeov o'rinli ta'kidlab o'tganidek, pedagogik hamjamiyatda kompetensiya va kompetentlik, ulardan qaysi biri tanyach (universal) hisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullarini aniqlash jarayoni jadallik bilan bormoqda, mazkur tushunchalarni aniqlashtirish bo'yicha qizg'in munozaralar davom etmoqda.

Kompetent yondashuv ta'lim oluvchidan alohida-alohida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda o'z navbatida o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash esa, ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi [1].

Olimning fikridan kelib chiqqan holda va tadqiqot natijalari asosida kompetensiyalar nafaqat o'z ichiga bilim, ko'nikma va malakalarni, shuningdek, bo'lajak biologiya o'qituvchisining kasbiy faoliyati bilan bog'liq zaruriy vaziyatlar, qadriyatli-motivatsion komponentlar, qobiliyatlarni ham qaram oladi, degan xulosaga kelindi.

Tahlillar asosida tadqiqot obyekti bilan bog'liqlikda "kompetensiya" va "kompetentlik"ning quyidagi ta'rifi shakllantirildi:

Kompetensiya – mehnat bozori sharoitidagi o'zgarishlarga va innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni o'zida ifoda etadigan biologik fanlarni o'qitishga doir kasbiy vazifalarni hal etishga qobiliyatlikdir.

Kompetentlik – tayanch, fanlararo, umumkasbiy va aniq biologiya fan sohasiga doir kompetensiyalarni egallaganlikdir.

Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, biologiya fani o'qituvchisi ham nafaqat tayanch, fanlararo va umumkasbiy, balki xususiy kompetensiyalar tizimini egallashi talab etiladi. Biologiya o'qituvchisida tarkib toptirilishi lozim bo'lgan asosiy kompetensiyalardan biri – badiiy-estetik kompetentlikdir.

2010 yil 18-20 oktyabr kunlari Singapurdagi Nanyang Texnika universitetining Ta'lim bo'yicha Milliy Institutida Biologiya ta'limi uchun Osiyo Assotsiatsiyasi (BTOA)ning 23-Konferensiyasi o'tkazildi. Mazkur konferensiya biologiya ta'limida tadqiqotchilik ishlari

va amaliyotda qo‘llanilishi zarur bo‘lgan bilimlarni o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga qamrab olgan:

- 1) jamiyat va muhit o‘rtasidagi aloqalarni uyg‘unlashtirish;
- 2) muammolarni hal etishda biologiya ta‘limining roli va maqsadlarini aniqlashtirish;
- 3) bilimlarni shakllantirish va amalga oshirishga doir strategik harakatlarni tahlil etish [1].

Konferensiya natijalari bugungi kunda biologiya ta‘limining muhim vazifalaridan biri atrof-muhit muhofazasi, jonajon tabiatga nisbatan o‘quvchilarda qadriyatli munosabatni qaror toptirish, atrof-muhit muhofazasida badiiy-estetik omilning rolini kuchaytirish lozimligini ko‘rsatadi. Mazkur xulosa esa, o‘z navbatida bo‘lajak biologiya o‘qituvchisida badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi.

Uzluksiz ta‘lim tizimining asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan akademik litsey, kasb-hunar kollejlarda o‘qitiladigan biologiya o‘quv fani umumiy o‘rta ta‘lim maktablaridagi biologik fanlarning uzviy davomi hisoblanadi. Akademik litsey, kasb-hunar kollejlarda o‘qitiladigan biologiya fani o‘quvchilarning umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘zlashtirgan biologik bilim, ko‘nikma va malakalarni umumlashtirish, xulosa yasash va tizimlashtirishni amalga oshiradi.

Biologik fanlarni o‘qitish jarayonida o‘qituvchi eng avvalo, umumbiologik, gnoseologik va kasbga yo‘naltirilgan tushunchalarni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishiga erishish lozim. Garchi metodik adabiyotlarda kasbga yo‘naltirilgan tushunchalar [1] sirasiga kiritilgan bo‘lsa ham, barcha tushunchalar turkumini birlashtirib turuvchi metatushuncha sifatida tabiatni muhofaza qilish asosiy o‘qitish strategiyasi bo‘lib xizmat qilishi lozim.

XULOSALAR.

Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini tayyorlash nuqtai nazaridan kompetensiya – uzluksiz ta‘lim tizimida biologiya fanlarini o‘qitish jarayonini samarali tashkil uchun zarur bo‘lgan va aniq belgilab berilgan kasbiy tayyorgarlikka qo‘yiladigan ijtimoiy talablar (me‘yorlar)dan ham o‘zib ketishidir.

Tahlillar asosida tadqiqot ob‘ekti bilan bog‘liqlikda “kompetensiya” va “kompetentlik”ning quyidagi ta‘rifi shakllantirildi: kompetensiya – mehnat bozori sharoitidagi o‘zgarishlarga va innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni o‘zida ifoda etadigan biologik fanlarni o‘qitishga doir kasbiy vazifalarni hal etishga qobiliyatlikdir; kompetentlik – tayanch, fanlararo, umumkasbiy va aniq biologiya fan sohasiga doir kompetensiyalarni egallaganlikdir. Biologiya fani o‘qituvchisi ham nafaqat tayanch, fanlararo va umumkasbiy, balki xususiy kompetensiyalar tizimini egallashi talab etiladi. Biologiya o‘qituvchisida tarkib toptirilishi lozim bo‘lgan asosiy kompetensiyalardan biri – badiiy-estetik kompetentlikdir.

Xulosa qilib aytganda, milliy va xorijiy tajriba ijtimoiy va barqaror biologik ta‘lim rivojining eng muhim komponenti sifatida bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarida badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirishning mazmuni va amaliy-texnologik tizimini ishlab chiqish o‘zida muhim pedagogik muammoni aks ettiradi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shaxmurova G., Raxmatov U., Xo‘janazarov O., Tog‘ayeva G. “Biologiya fanini o‘qitish metodikasi” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta‘lim xodimlarini kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish xududiy markazi, Toshkent, 2017.
2. Mutalipova M., Imomov M. Ta‘limda ilg‘or xorijiy tajribalar moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. T.:TDPU, 2017
3. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015
4. Alyaminov X. O‘quvchilarga badiiy-estetik ta‘lim berishda o‘lkashunoslik materiallaridan foydalanish: Ped.fan.nom.diss....avtoref. – Toshkent: TDPU, 2007. -23 b.
5. Mardonov SH.Q., Rabbimova F.T. Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini o‘quvchilarga tabiatni idrok qilishga o‘rgatishga tayyorlash. O‘zMU xabarlar, № 3/2. – Toshkent, 2015, 83-86 b.